Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	



BUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHDA MOLIYAVIY NAZORATNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Jurayev Nomoz Tursunpulotovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

G-mail: nomoz8228@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi asosiy tashkilotlar va ularning vazifalari tahlil qilinadi hamda mavjud qonunchilikdagi muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, budjet mablag'lari, qonunchilik, audit, shaffoflik, samaradorlik.

Abstract: This article addresses the issues related to improving the legal foundations of financial control over the use of budgetary funds. It examines the main state financial control institutions and their functions, as well as analyzes existing legislative shortcomings and potential directions for improvement.

Key words: Financial control, budget funds, legislation, audit, transparency, efficiency.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы совершенствования правовых основ финансового контроля за использованием бюджетных средств. Рассматриваются основные органы государственного финансового контроля и их функции, а также анализируются существующие проблемы в законодательстве и направления их совершенствования.

Ключевые слова: Финансовый контроль, бюджетные средства, законодательство, аудит, прозрачность, эффективность.

KIRISH

Davlat budjeti mablag'laridan oqilona, samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, moliyaviy nazorat tizimi budjet mablag'larining sarflanishi ustidan tizimli va shaffof monitoring olib borish, qonunbuzilishlar va suiiste'molliklarning oldini olish, javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar vakolatlarini aniq belgilash, ularning faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda axborot texnologiyalari asosida nazorat tizimini raqamlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Budjet kodeksi"ning 26-bobi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda moliyaviy nazoratning tushunchasi, turlari, subyektlari va ularning vakolatlari, nazorat shakllari hamda tartib-taomillari belgilab berilgan [1]. Shuningdek, Kodeksda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, mahalliy moliya organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlarning vakolatlari ham belgilangan. Mazkur normativ asoslar davlat moliyaviy nazoratining institutsional mustahkamlanishiga xizmat qiladi va budjet mablag'larining ochiqligi, samaradorligi hamda qonuniyligi ustidan tizimli monitoring olib borishni ta'minlaydi.

Bugungi kunga kelib, moliyaviy nazorat tizimi davlat va mahalliy budjetlar doirasidagi barcha asosiy yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, bu tizim mamlakat budjet siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. Davlat budjeti doirasidagi moliyaviy nazoratning normativ-huquqiy bazasi nisbatan



takomillashgan tizimga ega ekanini ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, mahalliy budjetlar faoliyatidagi hududiy o'ziga xosliklar moliyaviy nazorat mexanizmlarining yagona metodologik yondashuv asosida amalga oshirilishini murakkablashtiradi. Bu esa mahalliy budjetlar ustidan moliyaviy nazoratni standartlashtirish va tizimlashtirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Budjet kodeksi"ning 3-moddasida moliyaviy nazorat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

"davlat moliyaviy nazorati — budjet to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida davlat moliyaviy nazorati obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish hamda taqqoslash" [1].

E.N. Xromov va D.A. Chirkov ta'kidlaganidek, "moliyaviy nazoratni mahalliy darajada tashkil etish hokimiyat organlari uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda fuqarolarning hayotiy ehtiyojlariga daxldor sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy-kommunal va ijtimoiy-maishiy xizmatlar, yo'l qurilishi kabi sohalarda mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ta'minlanadi" [2].

Ushbu mavzu doirasida V.V. Litvintsev [3], N.V. Stepanova [4], T.F. Tabunshchikova [5], Y.V. Shulikolar [6] tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida mahalliy budjetlar ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi turli muammolarni hal qilishga oid yondashuvlar, ushbu jarayonni normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish usullarini takomillashtirish kabi masalalar yoritilgan.

Y.M.Voronin, moliyaviy nazoratni faqat qonuniyligni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv obyektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ko'radi [7].

A.N.Kozyrinning fikricha, moliyaviy nazorat - bu maxsus shakl va usullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan davlat organlarining faoliyati, shuningdek, ayrim hollarda moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va ishonchligini belgilash vakolatiga ega bo'lgan nodavlat organlarining faoliyati, moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini obyektiv baholash, uni oshirish uchun zaxiralarni aniqlash, budjet rentabelligini oshirish va mulkni davlat "qo'lida" saqlashdir deb izohlagan [8].

Ch.Hood o'zining mashhur "A Public Management for All Seasons?" nomli tadqiqotida davlat moliyaviy boshqaruvida bozor mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiladi. U g'aznachilik va davlat xaridlari tizimlarining samaradorligini oshirishda raqobat tamoyillari, tanlov asosidagi yondashuvlar va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Hoodning fikricha, davlat xaridlari tizimi — bu nafaqat xarajatlarni nazorat qilish vositasi, balki davlat boshqaruvi sifatini oshirish uchun muhim platformadir [9].

S.Kelman "Procurement and Public Management: The Fear of Discretion and the Quality of Government Performance" nomli ilmiy izlanishida davlat xaridlari jarayonlarida vakolat va ixtiyoriylilikning o'rnini haqida bahs yuritadi. U byurokratik chegaralardan qochmasdan, mahalliy budjetlarga ma'lum darajadagi vakolat berilgan holda davlat mablag'laridan foydalanishning davlat boshqaruvi samaradorligiga ijobiy ta'sir qilishini asoslaydi [10].

A.V.Vahobov va T.S.Malikov fikriga ko'ra, moliyaviy nazoratni to'g'ri tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun uni amalga oshirilish reglamenti, o'tkazilish vaqti, nazorat subyektlari hamda nazorat obyektlari kabi mezonlar asosida tasniflash zarur [11].


V.Sh. Nuritdinova va M.A. Sharapova ta'kidlashicha, moliyaviy nazoratni tashkil etish - bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanadi. Ularning fikriga ko'ra, moliyaviy nazorat nafaqat moliyaviy faoliyatning qonuniy va maqsadga muvofiq yuritilishini ta'minlashga xizmat qiladi, balki davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamiyat oldidagi javobgarligini ham aks ettiradi [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat moliyaviy nazorati - bu budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish va bu kabi buzilishlarning oldini olish, shuningdek budjet sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni profilaktika qilishga qaratilgan institutsional faoliyat shakli hisoblanadi. Mazkur nazorat faoliyati ikki asosiy darajada — respublika va mahalliy (hududiy) darajalarda amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish darajalari

Respublika darajasida davlat moliyaviy nazorati quyidagilar ustidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan taqsimlanadigan mablag'lar;

Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari — Pensiya jamg'armasi, "El-yurt umidi" jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi kabi aniq maqsadlar uchun ajratiladigan va ishlatiladigan mablag'lar.

Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari.

Ushbu darajadagi moliyaviy nazorat, Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi va respublika miqyosidagi mablag'lar sarfini qonuniylik, maqsadlilik va samaradorlik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Mahalliy darajadagi moliyaviy nazorat esa quyidagilarni qamrab oladi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari;

Davlat tashkilotlarning budjetdan tashqari jamg'armalari ya'ni o'z faoliyatidan tushgan daromadlar asosida tashkil etilgan qo'shimcha mablag'lar (masalan, pullik xizmatlar, grantlar, homiylik);

Ushbu moliyaviy nazorat mahalliy moliya boshqarmalari, hokimlik huzuridagi moliyaviy nazorat organlari yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy bo'limlari tomonidan olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar hamda Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti davlat moliyaviy nazorat organlari hisoblanishadi va o'z faoliyatini yillik nazorat rejalari asosida tashkil qiladi. Bu rejalari bevosita davlat moliyaviy nazorat organi yoki vakolatli idora tomonidan tasdiqlanadi.

Bundan tashqari, zarurat tug'ilgan hollarda rejalashtirilmagan (rejadan tashqari) moliyaviy nazorat tadbirlari ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari asosida;

Moliyaviy nazorat organiga budjet qonunchiligi buzilganligi haqida ishonchli axborot yoki rasmiy ma'lumotlar taqdim etilganda;

Davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining asoslantirilgan qarorlari mavjud bo'lganda.

Ushbu yondashuv davlat moliyaviy nazoratining moslashuvchan, manzilli va samarador bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi, budjet mablag'larining qonuniy va maqsadli sarflanishi ustidan tizimli va profilaktik monitoring mexanizmini shakllantiradi.

Davlat moliyaviy nazorati maxsus vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchiligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining prinsiplaridir. Quyidagi 1-jadvalda davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish prinsiplarining mohiyati yoritiladi.

1-jadval. Davlat moliyaviy nazoratining asosiy prinsiplari va ularning mohiyati

№	Prinsip	Izoh
1	Qonuniylik	Davlat moliyaviy nazorati faqat qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Barcha tekshiruv va choralar belgilangan tartibda olib borilishi kerak.
2	Mustaqillik	Moliyaviy nazorat organlari o'z faoliyatini hech qanday tashqi bosim yoki aralashuvsiz, mustaqil tarzda amalga oshiradi. Bu prinsip nazoratning obyektivligini ta'minlaydi.
3	Ishonchlilik	Nazorat natijalarida aks ettirilgan ma'lumotlar haqiqatga to'la mos bo'lishi, ishonchli va hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.
4	Xolislik (obyektivlik)	Nazorat natijalari subyektiv fikrlardan holi bo'lib, faqat faktlar asosida shakllantiriladi. Bu prinsip adolatli xulosa chiqarishni kafolatlaydi.



Davlat moliyaviy nazorati tizimining samarali faoliyat yuritishini asosiy tamoyillar ta'minlaydi. Qonuniylik prinsipi nazorat tadbirlari faqat amaldagi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib borilishini talab qiladi. Mustaqillik esa moliyaviy nazorat organlarining o'z vakolatlari doirasida mustaqil tarzda harakat qilishi bilan tavsiflanadi. Ishonchlilik prinsipiga ko'ra, nazorat natijalari faqat hujjatlar va ishonchli faktlarga asoslangan bo'lishi lozim. Xolislik esa nazorat xulosalarining obyektiv va adolatli bo'lishini, shaxsiy manfaatlardan xoli tarzda shakllanishini anglatadi. Ushbu prinsiplarga rioya qilinishi moliyaviy nazoratning shaffof, asosli va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Davlat moliyaviy nazorati o'zining shakl va mazmuniga ko'ra uch asosiy ko'rinishda – taftish, tekshirish va o'rganish shaklida amalga oshiriladi. Taftish – bu budget mablag'larining sarflanishi va moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi, maqsadliligi hamda samaradorligini to'liq qamrab oluvchi keng ko'lamli nazorat shaklidir. Tekshirish esa, ma'lum bir yo'nalish yoki operatsiyani tanlab, u bilan bog'liq moliyaviy harakatlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ko'pincha qisqa muddatli va manzilli xususiyatga ega. O'rganish esa nazorat obyektining moliyaviy faoliyatiga umumiy baho berish, mavjud muammolarni aniqlash va kelgusidagi nazorat tadbirlariga asos yaratish maqsadida amalga oshiriladigan dastlabki tahliliy jarayon hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning bir qator usullari va shakllari mavjud bo'lib, ular nazoratning maqsadi, predmeti va ko'lami hamda nazorat qilinayotgan subyektlarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab tanlanadi (2-jadval).

2-jadval. Davlat moliyaviy nazoratining turlari va usullari

No	Turi	Mohiyati
Davlat moliyaviy nazoratining turlari		
1	Dastlabki nazorat	Moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar qonuniylikni aniqlash uchun o'tkaziladi
2	Joriy nazorat	Moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida hujjatlarning qonuniyligi va tartiblilik nazorati
3	Yakuniy nazorat	Operatsiyalar yakunlangach, ularning natijalarini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash uchun o'tkaziladi
Davlat moliyaviy nazoratining usullari		
A) Hujjatlarni tekshirish hajmiga ko'ra:		
1	Yoppasiga nazorat	Barcha moliyaviy, buxgalteriya, bank, statistika va boshqa hujjatlarni to'liq tekshirish
2	Tanlov asosidagi nazorat	Faqat ayrim hujjatlar yoki ularning qismlarini tanlab, nazorat qilish
B) Maqsadga yo'naltirilganligi va predmetiga ko'ra:		
1	Kompleks nazorat	Muayyan davr uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab oluvchi nazorat
2	Mavzuli nazorat	Faqat ayrim sohalar yoki masalalar bo'yicha (masalan, davlat xaridlari, ish haqi, subsidiya) nazorat
3	Muqobil nazorat	Bir-biriga bog'liq hujjatlarni turli obyektlarda solishtirish orqali nazorat qilish (tadbirkorlar istisno)

Shakl nuqtayi nazaridan moliyaviy nazorat taftish, tekshirish va o'rganish ko'rinishida olib boriladi. Har bir shakl o'zining nazorat chuqurligi va tahliliy yondashuv darajasi bilan ajralib turadi.

Usullar esa hujjatlarni to'liq yoki tanlab tekshirish, kompleks yoki mavzuli yondashuv hamda muqobil solishtirish asosida amalga oshiriladi. Bu usullar nazorat jarayonini yanada samarali tashkil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularning oldini olish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu yondashuvlar budget mablag'larining maqsadli va qonuniy sarflanishi ustidan tizimli monitoringni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga ma'sul tashkilotlar sirasiga O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va hududiy bo'linmalari, G'aznachilik bo'linmalari, Iqtisodiy jinoyatlarga



qarshi kurashish departamenti hamda Davlat soliq qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari ma'sul bo'lib, ular 3-jadvalda keltirilgan yo'nalishlar bo'yicha davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

3-jadval. Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlar va ularning vazifalari

Tashkilot nomi	Vazifalar
O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi	- Budjet va jamg'armalar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish; - Davlat va hududiy dasturlarni audit qilish; - Tushumlarning to'liqligini va xarajatlarning samaradorligini nazorat qilish; - Investitsiya loyihalarini baholash; - Soliq, bojxona va budjet qonunchiligini takomillashtirish takliflarini ishlab chiqish; - Budjetlararo munosabatlarni tahlil qilish; - Diplomatik missiyalar mablag'lari va davlat xaridlari ustidan nazorat; - Pul-kredit siyosati, oltin-valyuta zaxiralari va boshqa operatsiyalar tashqi auditi.
Iqtisodiyot va moliya vazirligi va hududiy bo'linmalari	- Quyi moliya organlari faoliyatini nazorat qilish; - Ijtimoiy nafaqa va moddiy yordamlarning to'g'ri to'lanishini nazorat qilish; - Smeta va shtat intizomiga rioya qilinishini ta'minlash; - Aksiz solig'ining hisoblanishi va to'lanishini nazorat qilish; - Budjet hisobotlarini tekshirish.
G'aznachilik bo'linmalari	- Budjet mablag'lari hisobidan tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish; - To'lovlarni amalga oshirish va to'lov intizomini ta'minlash.
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti	- Budjet va smeta-shtat intizomini tekshirish; - Budjet xarajatlari, to'lovlarning muddatligi va to'liqligini nazorat qilish; - Kreditlar, insonparvarlik yordami, diplomatik missiyalar mablag'larining maqsadli sarflanishini tekshirish; - Davlat xaridlari tenderlarining qonuniyligini nazorat qilish.
Davlat soliq qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari	- Soliq qonunchiligi ijrosini moliyaviy nazorat qilish.

Hisob palatasi davlat va hududiy dasturlar, investitsiya loyihalari, diplomatik missiyalar mablag'lari hamda pul-kredit siyosati ustidan tashqi audit olib boradi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi va hududiy bo'linmalari smeta va shtat intizomini, nafaqalar to'lovini nazorat qiladi, soliq va budjet hisobotlarini tahlil qiladi. G'aznachilik bo'linmalari budjet mablag'lari asosida tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi va to'lov intizomini ta'minlaydi. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti budjet mablag'larining qonuniyligi va tender tartiblarining shaffofligini tekshiradi. Davlat soliq qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari esa soliq qonunchiligiga rioya qilinishini moliyaviy nazorat qiladi.

Ushbu tashkilotlar davlat moliyaviy nazoratining turli jihatlarini o'z zimmasiga olgan bo'lib, ular o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Maqsad – budjet mablag'larining noqonuniy, samarasiz yoki maqsadsiz sarflanishining oldini olish, moliyaviy intizom va shaffoflikni ta'minlashdir.

Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish — bu davlat moliyaviy boshqaruvining shaffofligi, samaradorligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim yo'nalishdir. Quyida ushbu sohani takomillashtirish bo'yicha asosiy takliflar keltirilgan:

Budjet kodeksi, moliyaviy nazorat, davlat xaridlari, audit va soliqqa oid qonun hujjatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;

Nazorat qiluvchi tashkilotlar o'rtasida vakolatlar bo'linishini aniq belgilash, funksional takrorlanishlarga yo'l qo'ymaslik;

Ichki audit tizimlarini har bir budjet tashkilotida majburiy joriy qilish va ularning ish faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish;

Mahalliy darajadagi moliyaviy nazoratni kuchaytirish uchun mahalliy kengashlar va fuqarolik jamiyati institutlariga huquqiy asoslar yaratish;

Davlat xaridlari, budjet to'lovlari va grant mablag'larining harakatini ochiq axborot platformalarida e'lon qilishni majburiy tartibga solish;

Elektron g'aznachilik, elektron audit va moliyaviy hisobotlarning raqamli shaklda yuritilishini qonuniy darajada mustahkamlash.



Budjet mablag'laridan qonuniy va samarali foydalangan tashkilotlar uchun rag'batlantiruvchi normativlar joriy etish (masalan, qo'shimcha grantlar, reyting baholari).

Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish nafaqat mavjud qonun hujjatlarini yangilashni, balki nazorat mexanizmlarining raqamli, institutsional va fuqarolik ishtirokiga asoslangan yangi modelini shakllantirishni talab qiladi. Bu esa budjet mablag'larining ochiqqligi, samaradorligi va qonuniyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirish, mablag'larning maqsadli va qonuniy sarflanishini ta'minlash hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikda nazorat mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, ularni zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, tartibga soluvchi normalarni soddalashtirish va funksional takrorlanishlarning oldini olish dolzarb vazifalardan biridir.

Moliyaviy nazoratning institutsional asoslarini mustahkamlash, ichki audit tizimlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, budjet jarayonlarining ochiqqligini ta'minlovchi raqamli texnologiyalarni qonunchilik asosida joriy etish orqali tizimli yondashuvni shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat nazorat organlarining faoliyatini uyg'unlashtirishga, balki davlat moliyaviy boshqaruvining jamoatchilik oldidagi ochiqqligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati ikkita asosiy darajada — respublika va mahalliy darajada olib boriladi. Har bir darajada moliyalashtirilayotgan budjet va budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi, xarajat qilinishi, qonuniyligi va samaradorligi ustidan nazorat o'rnatiladi. Bu esa davlat mablag'laridan oqilona va shaffof foydalanilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibidagi vakolatli organlar hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti davlat moliyaviy nazorat organlari hisoblanadi. Ular faoliyatini yillik nazorat rejalari asosida tashkil etadi.

Shu bilan birga, budjet mablag'laridan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi va moliyaviy huquqbuzarliklarga nisbatan jazo choralarini kuchaytiruvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. Bu chora-tadbirlar davlat moliyaviy resurslarining shaffof, oqilona va halol boshqarilishini ta'minlaydi hamda korrupsiya xavfini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
2. Хромов Е.Н., Чирков Д.А. Муниципальный финансовый контроль: проблемы реализации и перспективы развития. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2015;370(10):25– 29.
3. Литвинцев В.В. Совершенствование системы финансового контроля местных бюджетов: на примере города Москвы. Автореф. дис. ... канд. экон. наук. М.; 2011. 25 с.
4. Степанова Н.В. Финансовый контроль в системе управления расходованием средств бюджетов субъектов Федерации: на примере Ивановской области. Автореф. дис. ... канд. экон. наук. Иваново; 2004. 18 с.
5. Табунщикова Т.Ф. Становление и развитие муниципального финансового контроля. Автореф. дис. ... канд. экон. наук. Тюмень; 2006. 22 с.
6. Шулико Е.В. Муниципальный бюджетный контроль в Российской Федерации: На примере муниципального образования г. Новороссийска. Автореф. дис. ... канд. экон. наук. М.; 2004. 25 с.
7. Воронин Ю. М. Государственный финансовый контроль. М.: финансовый контроль, 2005.
8. Козырин А. Н. Финансовый контроль // Финансовое право / под ред. проф. О. Н. Горбуновой. — М.: Юрист, 1996. — С.48.
9. Christopher Hood (1991): "A Public Management for All Seasons?" / Public Administration.
10. Steven Kelman (1990): "Procurement and Public Management: The Fear of Discretion and the Quality of Government Performance" / AEI Press.
11. Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. T. 2008. 322-bet
12. Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma. T.: 2014. 380-bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
